# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 3-oktabr, № 207 (8550) Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O'ZBEKISTON — QATAR: IKKI TOMONLAMA SHERIKLIK SIFAT JIHATIDAN YANGI DARAJAGA KO'TARILMOQDA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan 1-2-oktabr kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.**



2-oktabr kuni Doha shahridagi "Amiri Devon" majmuasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

O'zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyevni Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy samimiy kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Harbiy orkestr ikki mamlakat madhiyalarini ijro etdi.

Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar va rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

"Amiri Devon" majmuasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Qatar Amiriga tashrif bilan kelish taklifi hamda O'zbekiston delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Qatar Amiri joriy yil iyun oyida Samarqandga amalga oshirgan tarixiy tashrif mamlakatlarimiz munosabatlarida yangi bosqichni boshlagani ta'kidlandi. O'zbekiston bilan Qatar o'rtasidagi hamkorlikni yanada yuqori, strategik sheriklik darajasiga olib chiqishga qat'iy intilish bildirildi.

Turli darajalarda muloqotlar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo hajmi oshmoqda, ikki mamlakat poytaxtlari o'rtasida aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi. Qatarning yirik kompaniyalari bilan qo'shma loyihalar boshlandi.

Tashrif arafasida Dohada O'zbekiston elchixonasi ochildi, uning faoliyati samarali sheriklikni faol rivojlantirishga kuchli sur'at bag'ishlaydi.

Qatarda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalariga hamohang bo'lgan "Nigoh 2030" davlat dasturiga yuqori baho berildi.

Tomonlar savdo ko'rsatkichlarini karrasiga oshirish, an'anaviy va "yashil" energetika, neft-kimyo, metallarni chuqur qayta ishlash, qishloq xo'jaligi, qurilish, turizm, moliya va boshqa sohalarda qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

Ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish uchun 2024-yil yanvar oyida Dohada qo'shma Hukumatlararo komissiya, Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig'ilishlari va biznes forumini o'tkazish taklif qilindi.

Madaniyat, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvni kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozimligi qayd etildi.

O'zbekiston Qatarning ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, biotexnologiyalar va sun'iy intellekt, "yashil" energetika borasida qo'shma tadqiqotlar o'tkazishdan manfaatdor ekani ta'kidlandi. Dohada O'zbekiston madaniyati va turizm haftaligini o'tkazishga kelishib olindi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ham muhokama qilindi.

Transafg'on temir yo'lini qurish loyihasini amaliy ilgari surish masalalarini qo'llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Tomonlar Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni davom ettirish muhimligi haqida yakdil fikr bildirdilar.

Uchrashuv yakunida davlat rahbarlari bir qator qo'shma "yo'l xaritalari"ni tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali ro'yobga chiqarish mexanizmlarini yaratish topshirig'ini berdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning muzokaralaridan so'ng ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi.

Xususan, hamkorlikning turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi hujjatlar imzolandi:

— O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qatar Davlati Hukumati o'rtasida turizm va ishbilarmonlik tadbirlari sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Qatar Davlati Ijtimoiy rivojlanish va oila vazirligi o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum;

— O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Qatar Davlati Ichki ishlar vazirligi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi;

— O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va Qatar Davlati Investitsiya agentligi o'rtasida investitsiyaviy hamkorlik to'g'risida o'zaro anglashuv memorandumi;

— O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Qatar Davlati Ma'muriy nazorat va shaffoflik boshqarmasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi.

Bundan tashqari, tashrif doirasida quyidagi kelishuvlarga erishildi:

— O'zbekiston Respublikasi Din ishlari qo'mitasi va Doha dinlararo muloqot xalqaro markazi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi;

— O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi va Qatar Davlati Inson huquqlari bo'yicha milliy qo'mitasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi;

— O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va Qatar Davlati Savdo-sanoat palatasi o'rtasida qo'shma ishbilarmonlar kengashini tuzish to'g'risida bitim;

— O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va Qatar Davlati Savdo-sanoat palatasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kuni Doha shahrida o'ziga ajratilgan qarorgohda Qatar Davlatining sobiq Bosh vaziri, mamlakatdagi qator yirik investitsiya va sanoat xoldinglari asoschisi Hamad bin Jassim Ol Soniyni qabul qildi.

O'zbekiston va Qatarning yetakchi kompaniya va korxonalari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Energetika, sanoat, infratuzilma, turizm, bank-moliya sohalarida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari ekspertlar guruhini shakllantirish va "Yo'l xaritasi"ni qabul qilish orqali qo'shma loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish muhimligini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatarga davlat tashrifi doirasida "EKSPO Doha — 2023" butunjahon ko'rgazmasining ochilish marosimida ishtirok etdi.

Tantanali tadbirda Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon, Iroq, Yaman va boshqa qator mamlakatlarning davlat va hukumat rahbarlari qatnashdi.

"EKSPO Doha — 2023" mintaqada o'tkazilayotgan ilk global "yashil" ko'rgazmadir. Tadbir "Yashil sahro, yanada yaxshi atrof-muhit" shiori ostida o'tkazilmoqda va kelgusi yil mart oyiga qadar davom etadi.

Forum ishtirokchilari atrof-muhitni muhofaza qilish, ekotizimlarni rivojlantirish, "aqlli" qishloq xo'jaligini joriy qilish, yangi turdagi ekinlarni yetishtirish, innovatsion bog'lar yaratish va boshqa yo'nalishlardagi ilg'or texnologiyalar va yutuqlar bilan tanishdi.

Ko'rgazma doirasida tashkil etilgan O'zbekiston milliy pavilyonida intensiv dehqonchilik va chorvachilik, ekologik menejment sohalaridagi eng yangi texnologiyalar, mamlakatimiz bog'dorchilik va oziq-ovqat tarmoqlari taqdimotlari namoyish etilmoqda.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qatarga davlat tashrifi yakunlandi.

**O'zA.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## Dunyo nigohi

# IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH UCHUN BARQAROR HAMDA QULAY MUHIT YARATISH YO'LIDAGI STRATEGIK QADAM

*O'zbekiston Prezidentining 1-2-oktyabr kunlari Qatarga amalga oshirgan davlat tashrifi yakunlari xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va ekspert-tahlil doiralari vakillari o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.*

Xalqaro ekspertlarga ko'ra, Dohada bo'lib o'tgan oliy darajadagi muzokaralar, shuningdek, ushbu davlatning yirik kompaniyalari rahbariyati bilan uchrashuvlar O'zbekiston uchun nafaqat Qatar bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni kengaytirish, balki boshqa ko'rfaz mamlakatlari bilan ham yangi istiqbollarni ochishga mustahkam poydevor bo'ladi.

Tahlilchilar, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Dohaga tashrifi O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar faollashuvining yorqin dalili ekanini ta'kidlash barobarida bu ikki tomonlama savdo-investitsiyaviy hamkorlikni bir necha karra oshirish uchun haqiqiy imkoniyat sifatida qayd etishmoqda.

**Emilio KARMONA, Ispaniya savdo, sanoat va turizm vazirligi huzuridagi Xalqaro savdo institutining (ICEX) sobiq bosh direktori, "Investrade" kompaniyasi prezidenti:**



— Ushbu tashrif, shubhasiz, O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga sifat jihatdan yangi sur'at bag'ishlaydi. Bu ikki mamlakat rahbarlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarda ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirishga qat'iy qaror qilganidan dalolat beradi.



Ayniqsa, ispan tajribasidan kelib chiqib, Ispaniya — Qatar munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha barcha muhim kelishuvlarga davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari chog'ida erishilganini alohida ta'kidlamoqchiman.

O'zbekiston va Qatar rahbarlarining muzokaralari, shuningdek, mamlakatingiz rahbarining ushbu davlatning yetakchi ishbilarmon doiralari vakillari bilan rejalashtirilgan uchrashuvlari natijasida Qatar sarmoyalarini O'zbekistonning jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotida bir necha barobar oshirish bo'yicha ham muhim kelishuvlarga erishilganiga shubham yo'q.

➔2

## Tahlil

# GERMANIYA O'ZBEKISTONNING YEVROPADAGI ISHONCHLI HAMKORI

*Keyingi yillarda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar barcha yo'nalishda jadal rivojlanib bormoqda. O'zaro tovar ayirboshlash va qo'shma loyihalar soni ikki barobar ortdi. Germaniyadan O'zbekistonga investitsiyalar hajmi 5,5 mlrd. dollarga yetdi, shundan 4 mlrd. dollar oxirgi olti yilda jalb qilingan. "Yashil" energetika, qazib chiqarish, kimyo, farmatsevtika tarmoqlarida, transport infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, innovatsiya va boshqa sohalardagi kooperatsiya loyihalari shular jumlasidan.*

Shuningdek, energetika, kimyo, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoati, metallurgiya, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari, elektrotexnika ishlab chiqarish, farmatsevtika va sog'liqni saqlash sohalarida uzoq muddatli hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Ortga qaytmas islohotlar samarasi o'laroq, germaniyalik ishbilarmonlarda mamlakatimiz bilan hamkorlik qilish, investitsiya kiritish istagi kuchaymoqda. Ayniqsa, energetika sohasi — quyosh panellari, "yashil" iqtisodiyot kabi yangicha formatdagi tizimlar tadbirkorlarning e'tiborini tortyapti.

Bundan tashqari, kichik va o'rta biznesga uzoq muddatli kredit yo'nalishlarini shakllantirish maqsadida Germaniyadagi qator banklar bilan O'zbekiston banklari o'rtasida shartnomalar imzolangan. Bu — Germaniyada yoki Yevropada ishlab chiqarilayotgan uskuna, boshqa texnologiyalarni mamlakatimizga olib kelishga keng yo'l ochiladi, degani.

E'tiborli jihati, bu yo'nalishga 7 yildan 10 yilgacha kredit liniyalari shakllantiriladi. Germaniya hukumati O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishini hamda Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imkon qadar tez imzolashini bundan buyon ham qo'llab-quvvatlashga tayyor.

Germaniya va Markaziy Osiyo aloqalari so'nggi yillarda ijobiy tendensiya asosida rivojlanayotganini qayd etib o'tish lozim. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari himoyasi masalalarida katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. O'zbekiston o'z iqtisodiyotini modernizatsiyalash masalasida ham sezilarli rivojlanishga erishayotgani e'tiborlidir.

➔2

# IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH UCHUN BARQAROR HAMDA QULAY MUHIT YARATISH YO'LIDAGI STRATEGIK QADAM

1 Mamlakatingiz so'nggi yillarda qanday o'zgarganini ko'rib turibmiz. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ishbilarmonlik muhiti sifat jihatdan yaxshilandi, xorijiy investitsiyalar oqimi ortib bormoqda, umuman olganda, xorijlik hamkorlar sifatida biz uchun biznesni rivojlantirish borasida yangi imkoniyatlar ochilyapti.

Ishonchim komilki, Qatarda o'tgan ikki tomonlama muzokaralar ispan kompaniyalari uchun O'zbekistonni o'z faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rish va yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun muhim "signal" bo'lib xizmat qiladi.

**Jon LI,**
**"TiEmSi Akademi" bosh direktori (Singapur):**



— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qatar Amiri taklifiga binoan Dohaga tashrifi O'zbekiston bilan Qatar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar faollashganidan yorqin dalolatdir. Bu voqea har ikki tomon ham mintaqaviy va global miqyosdagi o'zaro hamkorlikka ahamiyat qaratayotganidan dalolat beradi.

Qatar eng yirik tabiiy gaz eksportchilaridan biri sifatida iqtisodiy hamkorlikni diversifikatsiya qilish yo'llarini faol izlamoqda. O'zbekiston, o'z navbatida, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xorijiy sarmoyalarni, ayniqsa, infratuzilma, energetika va qishloq xo'jaligi sohalariga faol jalb etishga intilmoqda.

"EKSPO Doha — 2023" — "Yashil sahro, yanada yaxshi atrof-muhit" xalqaro ko'rgazmasida asosiy e'tibor ekologik barqaror rivojlanishga qaratilgan bo'lib, bu barqaror rivojlanish va iqlimni muhofaza qilish sohasidagi jahon tendensiyalariga mos keladi. Ushbu yondashuv ekologik muammoning har ikki mamlakat va butun dunyo uchun dolzarbligini ta'kidlaydi.

Ikki tomonlama muzokaralar chog'ida savdo, sarmoya, transport, madaniyat va ta'lim kabi turli sohalardagi hamkorlik masalalari ko'rib chiqilishi quvonarlidir. Bunday hamkorlikdan har ikki davlat o'zaro manfaat ko'rishi mumkin, bu esa ularning mintaqadagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Hozirgi global kontekst va jahon iqtisodiyoti oldida turgan muammolarni hisobga olgan holda O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun barqaror hamda qulay muhit yaratish yo'lidagi strategik qadamdir.

**Moxammadreza Abesh AXMADLU,**
**Eronning ingliz tilida bosiladigan nufuzli "Iran Daily" gazetasi muxbiri:**

— Tarixga nazar tashlasak, Qatar 1991-yil 30-dekabrda O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan arab davlatlaridan biri bo'lgan.



Yangi jahon tartibi shakllanayotgan bir sharoitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Amiri taklifini qabul qilishi ikki davlatga ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Qatar o'zaro aloqalarni, ayniqsa, transport kommunikatsiyalari, neft-gaz, kimyo sanoati, qurilish, savdo, turizm va yuqori texnologiyalar kabi sohalarda rivojlantirish uchun katta salohiyat va istiqbolga ega.

Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, energetika, kimyo sanoati, transport kommunikatsiyalari, qurilish, turizm, yuqori texnologiyalar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tajriba almashishdan ikki davlat ham manfaat ko'rmoqda.

Oliy darajadagi faol siyosiy muloqot ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Ushbu tashrif O'zbekiston va Fors ko'rfazi mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun ham dolzarbdir.

Qatar bilan hamkorlik O'zbekiston uchun ko'rfaz mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalarda aloqalarni kengaytirish uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Ishonchim komilki, O'zbekistonning O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon — Qatar transport-kommunikatsiya koridorini shakllantirish tashabbusini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida Eronning Janubiy portlari bilan temir yo'l aloqalarini o'rnatish Fors va O'mon ko'rfazi hamda Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari o'rtasida muhim bog'lovchi tarmoqni yaratishga xizmat qiladi.

**Xalid Taymur AKRAM,**
**"Umumiy kelajak jamiyati" tahliliy markazi ijrochi direktori (Pokiston):**



— O'zbekiston rahbarining Qatarga tashrifi tarixiy ahamiyatga ega. Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoda to'planib qolgan barcha muammoli masalalarni hal eta olgan, mintaqa davlatlarini umumiy kelajakni barpo etish yo'lida birlashtira olgan buyuk yetakchiga aylandi. Endi u Yaqin Sharqni "kashf qilish" uchun otlandi.

Tashrifning birinchi kunida O'zbekiston Prezidenti Qatarning energetika va sarmoyaviy sohalardagi yetakchi kompaniyalari vakillari bilan bir qator samarali uchrashuvlar o'tkazdi. Ishonchim komilki, ushbu muzokaralar Qatarning yirik kompaniyalari ishtirokida O'zbekistonda yangi sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

Ayni paytda O'zbekiston jadal va barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Qatar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatildi. Qatar Amirining 2023-yil iyun oyida Samarqandga tashrifi ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Tomonlar hamkorlikning yangi istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha kelishuvga erishdi.

O'zbekiston yetakchisining Qatarga bu galgi tashrifi Samarqanddagi muzokaralarning mantiqiy davomi bo'lib, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq o'rtasida yangi ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qatarga tashrifi doirasida Doha shahrida O'zbekiston vakillari ishtirok etadigan "EKSPO Doha — 2023" — "Yashil sahro, yanada yaxshi atrof-muhit" xalqaro ko'rgazmasining ochilishida ham qatnashdi.

Ishonchim komilki, ushbu platforma tomonlarga O'zbekiston mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha ko'plab shartnomalar imzolash imkonini beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qatarga ushbu tarixiy tashrifi samarali natijalar berishi, shubhasiz.

**"Dunyo" AA.**

# GERMANIYA O'ZBEKISTONNING YEVROPADAGI ISHONCHLI HAMKORI

1 Germaniya O'zbekiston bilan hamkorlikni, birinchi navbatda, ikki tomonlama savdo munosabatlarini kengaytirishdan manfaatdor. So'nggi besh yilda ikki mamlakat o'rtasida savdo hajmi to'rt baravarga oshib, bugungi kunda 1 mlrd. yevroni tashkil etmoqda.

Yevropa Ittifoqining lokomotiv davlatlaridan biri sifatida Germaniya O'zbekistonning "GSP+" tizimiga qo'shilishini faol qo'llab-quvvatladi. Bu esa savdoda O'zbekistonga katta imtiyozlar berilishini anglatadi.

Yevropada 513 milliondan ziyod aholi istiqomat qiladi. Shu bois O'zbekiston "GSP+"ga qo'shilgandan keyin o'zbek kompaniyalari Yevropa bozoriga kirib kela boshladi va o'z mahsulotini sotmoqda. Bu esa ularga katta imkoniyatlar eshigini ochdi. "GSP+" tizimiga qo'shilish orqali ular nisbatan qulay sharoitlarda Yevropa bozoriga kirishi, manfaatli tarzda, yaxshi raqobat muhitida ishlashi mumkin bo'ldi.

"GSP+" davlatga ko'plab imtiyozlar berish bilan birga, uning oldiga bir qator talablar ham qo'yadigan tizimdir. Ya'ni "GSP+" imtiyozlar tizimi nomzod davlatlarga katta talablar — islohotlar o'tkazish, inson huquqlari, atrof-muhit muhofazasi, samarali davlat boshqaruvi, mehnat muhofazasi masalalarida shartlarni qo'yadi. Shuning uchun ham "GSP+" tizimiga faqatgina 8 ta davlat kira olgan.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi bilan bog'liq mavzu bugungi kun tartibidagi asosiy mavzulardan. Germaniya esa bu tashkilotda o'z o'rniga ega davlatlardan hisoblanadi. Rasmiy Berlin O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi taraddudida ekanidan xursand va bu muvaffaqiyatli amalga oshadi, degan umidda.

Jahon savdo tashkiloti — "GSP+" tizimiga ham o'xshaydi. Ya'ni bunda ham nomzod davlatdan rivojlanish, siyosat, ijtimoiy hayot, savdo masalalarida islohotlar o'tkazish talab etiladi. O'zbekiston savdo, investitsiyaviy muhit, soliqlar, bojxona to'lovlari va jarayonlari borasida bir qator o'zgarishlarni amalga oshiryapti. O'zbekiston o'z bozoriga xorijiy mahsulotlarning kirib kelishi borasida ko'plab cheklovlarni olib tashladi.

O'zbekiston va Germaniya muloqotlarida transport va logistikani rivojlantirish masalalariga e'tibor katta. Tomonlar Markaziy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan samarali yo'nalishni shakllantirishga xizmat qiluvchi Transkaspiy yo'lagini birgalikda rivojlantirish bo'yicha yakdil fikrda.

Shu o'rinda Germaniyaning "5+1" shaklidagi muloqotga qiziqishi ortib borayotganini kuzatish va hozirgi munosabatlarga muloqotlarning muhim davri, deya ta'rif berish mumkin.

"5+1" deb ataluvchi ko'p tomonlama uchrashuvlar formati Markaziy Osiyoning beshta davlati ("5") va xalqaro hamkor ("1") ni nazarda tutadi. Mazkur format davlat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va ekspertlar darajasida muntazam ravishda tashkil etiladigan uchrashuvlar hamda forumlar doirasida doimiy muloqot qilish uchun diplomatik platforma vazifasini o'taydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston rahbarining ochiq va konstruktiv tashqi siyosati hamda mintaqadagi davlatlar rahbarlarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi siyosiy muhit yuzaga keldi. Bu Markaziy Osiyodagi vaziyatni keskin ravishda ijobiy tomonga o'zgartirib yubordi. Endilikda jahon siyosiy va iqtisodiy tizimiga integrallashuvni maqsad qilgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun Germaniya, Yevropa Ittifoqi davlatlarining faollashuvi va qo'llab-quvvatlashi muhim.

Demak, bundan buyog'iga Germaniya va O'zbekiston o'rtasida "O'zbekistonning Yevropaga integrallashuvi" g'oyasiga asoslangan hamkorlik modeli yo'lga qo'yiladi.

Rasmiy Toshkent va Berlinni yaqinlashtiruvchi omillardan biri — bu xavfsizlik va taraqqiyot masalalaridagi o'xshash pozitsiyalar va yondashuvlardir. Shu bois O'zbekiston Germaniya bilan ko'p qirrali, o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga urg'u beradi. O'z navbatida, Germaniya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha tashabbusini hamda Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish orqali mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha tashabbusni olqishlaydi. Ikki davlat ham terrorizm, ekstremizm va radikallashuvni xalqaro xavfsizlikning bosh tahdidlari sifatida qabul qiladi. Aytish joizki, O'zbekiston Germaniya bilan Afg'oniston masalasida hamkorlik bo'yicha ijobiy tajribaga ega, 2022-yildan 2016-yilgacha Bundesver kontingenti Termiz shahridagi obyektlardan Afg'onistondagi stabillashuv missiyasini qo'llab-quvvatlash uchun foydalangan.

Boz ustiga, O'zbekiston Yevropa Ittifoqini va uning lokomotivlaridan biri — Germaniyani xalqaro sahnada muhim hamkorlardan biri sifatida qabul qiladi. Va YI hamda unga a'zo davlatlar bilan ko'p tomonlama va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratadi.

Yevropa Ittifoqi ayni vaqtda Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan yangi strategiyani ishlab chiqish jarayonini ishga tushirgan. YIning Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha hozirgi yangi strategiyasi 10 yil muqaddam Germaniya tashabbusi bilan qabul qilingan. Ushbu konseptual hujjatga zamon talabi, tomonlar manfaatlariga javob beradigan o'zgarishlarning kiritilishi Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlar uchun qulay sharoitlar yaratilishi hamda ularni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Germaniya tomoni Markaziy Osiyo davlatlariga Orol dengizining qurishi bilan bog'liq asoratlarni yengib o'tishda, suv resurslaridan ratsional foydalanishda, omborxonalar, suv bilan ta'minlash va suvni tejash tizimlarini takomillashtirishda ko'maklashish salohiyatiga ega.

O'zbekiston Germaniya investitsiyalarini jalb qilish, biznes muhitini yaxshilash, turizmni rivojlantirish, fermer xo'jaliklarini, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilma va tranzit-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohalarida hamkorlik qilish niyatida qat'iy. Shuningdek, ikki davlat demokratik institutlarni mustahkamlash, davlat boshqaruvi hamda sud-huquq tizimini takomillashtirishda, sog'liqni saqlash sohasini va ta'lim sifatini yaxshilashda, ilmiy salohiyatni rivojlantirish borasida hamkorlik va birgalikda tadqiqotlar olib borayotgani e'tiborga molik.

Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik, o'zaro anglashuv va sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotgani keng hamkorlik uchun yangi va noyob imkoniyatlar yaratayotir. Savdo-investitsiyaviy faoliyatni kuchaytirish, loyihaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish, mintaqada transport yo'laklarini rivojlantirish, "yashil" kun tartibini ilgari surish, inson huquqlari va gender tenglikni ta'minlash, ta'lim dasturlarini kengaytirish, Afg'onistondagi vaziyatning tinch yo'l bilan hal etilishiga ko'maklashish butun mintaqa rivoji uchun strategik ahamiyatga ega ustuvor yo'nalishlardir.

Bugungi kunda Germaniya Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatni kelajak sari jadal yetaklayotganini hech kim inkor eta olmaydi, deb hisoblaydi. Zero, avvalgi tuzum tanqidchilari qamoqxonalardan ozod etildi, onlayn-media sohasi faoliyati liberallashtirildi, so'z erkinligi kengaydi, huquqni muhofaza qilish organlari zo'ravonligi cheklandi.

Yaqinda "Berliner Zeitung" gazetasida O'zbekistondagi islohotlar e'tirof etilgan material chop qilindi. Qayd etilishicha, o'arb mustahkam sheriklikni yo'lga qo'ymoqda va O'zbekistondagi hayratlanarli darajadagi ijobiy jarayonlarni tan olmoqda. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyoning asosiy mamlakati savdosining qariyb 30 foizi YI hissasiga to'g'ri kelmoqda, bunda Germaniya muhim sherik hisoblanadi.

Maqolada hozirgi voqealar rivoji nafaqat O'zbekiston, balki Germaniya tomoni uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. O'zbekistonliklar soni tobora ortib bormoqda. Ushbu mamlakat yoshlari YI, Germaniyada ishga joylashsa, bundan har ikkala taraf ham manfaat ko'radi.

Nashrda yozishlaricha, mamlakatda demokratlashtirishga intilish o'ta jiddiy tus olgan. Konstitutsiyaviy islohot yordamida mamlakat demokratiya, ijtimoiy adolat, tenglik va erkinlik qadriyatlariga sodiqlikka intilmoqda.

Chindan ham, Yevropaning ushbu davlati bilan hamkorlik yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Bu haqda fikr yuritar ekanmiz, Germaniya o'zi qanday davlat, uning iqtisodiy imkoniyatlari, nemislarning hayoti, qadriyatlari haqidagi savollar yurtdoshlarimizni qiziqtirishi tabiiy.



Bu savollarga muxtasar javob berish mushkul, albatta. Binobarin olmon diyori qadim tarixga va o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega. Bu yurtda shakllangan qadriyatlar boshqa xalqlarnikiga aslo o'xshamaydi. Mamlakat iqtisodiyoti nihoyatda qudratli bo'lib, uning beshta sanoat sektori jahon bozorida hukmronlik qiladi. Davlat savdo-sanoat, mashinasozlik, muhandislik va farmatsevtikadan tortib, oziq-ovqatgacha bo'lgan sohalarda uzoq yillardan beri peshqadamlikni qo'ldan bermay kelmoqda. Sifatli va mukammal mahsuloti bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan Germaniya iqtisodiyot tarmoqlari ko'pincha import-eksport sifati tahlilchilarining diqqat markazida bo'ladi. Eng yirik iqtisodiy reytinglarda to'rtinchi davlat sifatida Germaniya yalpi ichki mahsuloti 2019-yilda 3,449 mlrd. yevroni tashkil qildi.

Ayni chog'da Germaniya import va eksport uchun jahonga o'zini optimal tarzda taklif qila oladi. Yevropa qit'asining markazida joylashgani, yaxshi ishlaydigan kommunikatsiya infratuzilmasi, xavfsiz energiya ta'minoti va barqaror rivojlangan yo'l hamda transport tarmoqlari uning biznes olamida dominant bo'lishiga yo'l ochmoqda.

Qolaversa, Germaniya dunyodagi eng yirik eksportchi davlatlardan biridir. 2018-yilda ushbu mamlakat Xitoy va AQSHdan keyin uchinchi o'rinni egalladi. Bu boradagi yutuqlarda, shubhasiz, birinchi navbatda, Yevropa Ittifoqining bojsiz maqomi muhim rol o'ynaydi. Chet el investitsiyalarining qariyb 75 foizi Yevropa Ittifoqidan keladi. Germaniya investitsiyalarining qariyb 50 foizi YI hududiga kiritiladi. Eksportining qariyb 60 foizi ittifoq davlatlariga jo'natiladi. Ushbu uch ketma-ketlik sinchkovlik bilan tahlil qilinsa, nemis diyorining baquvvat iqtisodiy tomirlari haqida bilib olish mumkin.

Ilm-fan, texnologiya, ta'lim, inson kapitaliga sarmoya yo'llash borasida Germaniya katta tajribaga ega. Ayni chog'da u tadqiqot va ishlanmalar sohasida ham dunyoda peshqadamlik qilmoqda. Statistikaga olingan 67 895 ta patent bilan Germaniya bu sohada jahon yetakchilaridan biri hisoblanadi. Xullas, nemislardan o'rganadigan jihatlar ko'p.

E'tiborlisi, bugun mintaqamiz ham jadal o'zgarib bormoqda. Bu tashqi dunyoni ham shunga yarasha harakat qilishga undaydi. Masalan, Germaniya bilan hamkorlik O'zbekiston va qo'shnilarimizni global moliya bozoriga olib chiqadi — innovatsion firmalar, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika bobida gigant ishlar ketayotgan maydonga. O'zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlari ham Germaniya bilan shu jihatlari uchun ham yaqindan ishlashni xohlashadi. Negaki, bugungi zamonaviy dunyoda konchilik, neft va gazga tayanib yashash bilan iqtisodiyotni rivojlantirish qiyin. Hamma ham bu borada muvaffaqiyat qozongan emas. Tabiiy boyligiga tayangan ayrim davlatlar boy, ayrimlari esa qashshoq.

Germaniya O'zbekiston mintaqaviy hamkorlik va hamjihatlikka bebaho hissa qo'shmoqda, deb hisoblaydi. Xususan, Olaf Shols ma'muriyati davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevga Markaziy Osiyodagi dinamikani ijobiy tomonga burgan lider, deya qaramoqda. "5+1" formatidagi dialog markazi ham, bir so'z bilan aytganda, Toshkent bo'lib qoldi.

Xullas, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning yangi — "5+1" formati muntazam muloqot uchun samarali mexanizm hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy va inklyuziv taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mintaqa va xorijiy hamkor davlatlar o'rtasida yangi formatlar va muloqot maydonlarini shakllantirish Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyatini oshiradi. Bir tomondan, "5+1" formati hamkorlik uchun qulay platforma hisoblansa, boshqa tomondan, "muvozanatlashtiruvchi mintaqaviylashuv" nazariyasiga ko'ra, ko'p tomonlama hamkorlik va muloqot shakllari orqali tashqi siyosatni amalga oshirish hamda tashqi kuchlarning ta'sirini muvozanatlovchi norasmiy vositadir.

Shu nuqtayi nazardan, hozirgi geosiyosiy vaziyat va sharoitda Markaziy Osiy davlatlari uchun xorijiy hamkorlar bilan ko'p tomonlama va muvozanatli hamkorlikni qo'llab-quvvatlash g'oyat muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, mintaqaviy sheriklikni chuqurlashtirish Markaziy Osiyoning ahamiyatini oshirib, mintaqa manfaatlari yo'lida turli masalalarni bartaraf etishning samarali omili sanaladi.

**Mashhura BOBOJONOVA,**
**Germaniyaning Leybnis nomidagi O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti doktoranti.**

Dil so'zi

## HAYOTGA QALB KO'ZI BILAN BOQIB...

*Qariyb 32 yildan buyon Samarqand shahridagi 59-ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatida o'qituvchi bo'lib, yoshlarga matematika fanidan saboq berib kelyapman.*

So'nggi 5-6 yildan beri ta'limga berilayotgan davlat darajasidagi e'tiborni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Birgina bizning maktab-internatimizda oxirgi ikki yilda yaratilgan shart-sharoitni oldingisi bilan solishtirish juda qiyin. Prezidentimizning o'tgan yil fevral oyida maktabimizga tashrifidan keyin katta o'zgarishlar bo'ldi. Ilm maskanimiz to'liq ta'mirdan chiqarilib, o'quvchilar uchun yangi yotoqxona qurildi. Shuningdek, yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etildi.

Bundan tashqari, muassasamiz uchun alohida bosmaxona berildi. Bu yerda kitoblar, o'qituvchilarning ishlari chop qilinib borilmoqda. Darslik muammosi asta-sekin bartaraf etilyapti. Zarur darsliklar chiqarilyapti. O'zimiz 5 va 6-sinflar uchun mo'ljallangan "Matematika atrofimizda" degan o'quv qo'llanmasini chiqardik. Kelgusida 7, 8 va 9-sinflar uchun ham bu ishni bosqichma-bosqich amalga oshiramiz.

Hayot go'zalliklarini qalb ko'zi bilan ko'rib, undan zavqlanib yashashga harakat qiladigan insonlardanman. Zero, har bir inson irodasi, bardoshi, matonati bilan har qanday mashaqqatni yengishga qodir ekanligini yaxshi bilaman va o'zim ham shunga amal qilaman. Bu shior menga doim omad va baxt keltirgan.

Davlatimiz rahbarining Farmoniga ko'ra O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan bir guruh ustozlar qatorida "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlanganim ruhimni yanada ko'tardi. Kamtarona mehnatim qadrlanib, davlatimizning yuksak mukofotiga loyiq topilganimdan benihoya xursandman. Bu e'tirof meni yangi yutuq va zafarlarga chorlaydi, bundan keyin yanada shijoat bilan ishlashga undaydi.

**Bahriddin ISROILOV,**
**Samarqand shahridagi 59-ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi.**

## SHOGIRDLARIM — FAXRIM MENING

*Har qanday mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirishda sportning ahamiyati beqiyos. Sportdagi muvaffaqiyatlar zamirida esa davlatimiz tomonidan sohaga, qolaversa, murabbiylarga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik mujassam, desak, mubolag'a bo'lmaydi.*

Mustaqilligimizning ilk yillarida Qo'shtepa tumanining "Shomirza" mahalla fuqarolar yig'inida tashkil etilgan "Zarnigor" chim ustida xokkey bo'yicha qizlar jamoasi o'tgan davrda turli yosh toifalarida 20-marta O'zbekiston chempioni bo'ldi.

Yaponiya, Xitoy, Indoneziya, Malayziyada uyushtirilgan Osiyo o'yinlarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Bu kabi yutuqlarimiz tufayli keyingi yillarda jamoaning 100 nafardan ziyod chempion qizlari jismoniy tarbiya yo'nalishida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda qabul qilindi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga 2024-yili Shomirza mahallasida zamonaviy sport majmuasi qurib bitkazilishi rejalashtirilgan. Shu tariqa viloyatning olis qishlog'ida chim ustida xokkey sport turi bilan shug'ullanish istagidagi yoshlar uchun jahon andozalari darajasida shart-sharoitlar yaratiladi. Shundan ham bilish mumkin, yurtimizda sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bir guruh soha fidoyilari qatorida davlatimiz rahbarining Farmoniga ko'ra "Sog'lom turmush" medali bilan mukofotlandim. Bu qalbimga cheksiz g'urur bag'ishladi. Bunday yuksak e'tibor va rag'bat tufayli mazkur sport turini rivojlantirishga bo'lgan g'ayrat-shijoatim yanada jo'sh urdi.

Ellik besh yildan buyon murabbiyman. Ammo hali ham uyda o'tirgim kelmaydi. Bizga davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan katta e'tibor sportchilarimizning ulkan g'alabalarida o'z aksini topishi uchun harakat va mehnat qilishda davom etaman.

**Abdulhamid VAHOBOV,**
**Farg'ona viloyati chim ustida xokkey federatsiyasi ijrochi direktori, murabbiy, "Sog'lom turmush" medali sohibi.**

# IMORATLAR ICHIDA ENG ULUG'I — MAKTAB

*Har davrning zamon yukini yelkasida ko'targan fidoyilari bo'ladi. Ular ko'pam ko'zga tashlanmay, odatda xayrli ishu ezgu tashabbuslarini ko'z-ko'z qilishdan o'zlarini tiyib yurishadi. Misol uchun, Navoiy shahrining Farovon mahallasidagi 22-umumta'lim maktabining yangi binosini tadbirkor Abdukarim Saksonov qurib berganini shu yilning 28-avgustiga qadar ko'pchilik bilmasdi.*

## Daxldorlik

O'sha kuni Prezident yangi o'quv yili oldidan mamlakatimiz maktablarida ta'lim sifati va o'qituvchilar malakasini yanada oshirish, o'quvchi o'rnini ko'paytirish hamda ta'lim dargohlarida munosib shart-sharoitlar yaratish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida millat kelajagi maktabda ekanini e'tirof etib, tadbirkor qahramonimiz bilan onlayn muloqot qildi. Ushbu ezgulik jamiyatda ta'limga munosabat o'zgarganligining ifodasi ekani va ibrat maktabi bo'lishini ta'kidladi.

Abdukarim Saksonovning bolaligi Navbahor tumanining Ortiq Farmonov nomidagi mahallada o'tgan. 1991-yilda tumandagi 8-umumta'lim maktabini tugatgan qahramonimiz Buxoroning Mir Arab madrasasida islomshunoslik yo'nalishi bo'yicha tahsil olgan.

— Insonning hayotda kim bo'lishi, qanday kamol topishi, qaysi vazifada ishlashi, avvalo, uning o'z tadbiridan, — deydi Abdukarim Saksonov. — Taqdir esa Yaratganning irodasi. "Sendan harakat, mendan barokat", degan hikmatning mohiyati ham shunda. Qaysi kasb va hunarning egasi bo'lmasin, inson harakat qilsagina o'z rizqu nasibasini topadi, shu asnoda jamiyatga ham foyda keltiradi. Topgan bir burda noni ham halol bo'ladi. Pokiza joydan esa baraka arimaydi.

Qahramonimiz tadbirkorlik faoliyatini Navoiy shahrida chog'roqqina ayvon ostida o'quv qurollari sotishdan boshlagan. 2011-yilda esa dastlabki mas'uliyati cheklangan jamiyatiga asos solgan. Birin-ketin savdo va xizmat ko'rsatish sohasidan tashqari mebelsozlik, qurilish-montaj ishlari kabi bir qator ishlab chiqarish yo'nalishlarini ham o'zlashtiradi. Hudud uchun yangilik bo'lgan ko'plab noan'anaviy yo'nalishlarga pul tikib, kredit mablag'lari olinadi.

— Tadbirkorni velosipeddagi kishiga o'xshataman, — deydi Abdukarim Saksonov. — Pedalni aylantirib tursa, manziliga yetadi, aks holda... Beayov raqobat va bozor munosabatlarining sharti shunday. Yana bir muhim jihat shundaki, xalq boy va farovon yashamas ekan, tadbirkorning daromadi ham shunga yarasha bo'lib qolaveradi. Boylik deganda, faqatgina moddiylikni emas, balki ma'naviy dunyo va tafakkurni ham nazarda tutyapman. Bugungi kunda bu har qanday jamiyatning asosiy tashvishlaridan biriga aylangan. Eslaysizmi, Yurtboshimiz davlat rahbari sifatida o'z faoliyatini boshlagan dastlabki yillardayoq yosh avlodning har tomonlama barkamol ulg'ayishining asosiy sharti sifatida "Besh muhim tashabbus" g'oyasini ilgari surgan edi. Ushbu g'oya asosida Navoiy shahrida "Tashabbuslar" sayilgohini barpo etdik. Bugun ushbu hududdagi sport maydonchalari, kichik amfiteatr, jozibali favvoralar, so'lim manzillar, nafaqat yoshlar, balki butun shahar ahlining sevimli maskaniga aylangan.

Mana shunga ham besh yil bo'libdi. Bu oraliqda yangi-yangi ish o'rinlari yaratib, bir qator ijtimoiy soha obyektlari, aholi turarjoylarini qurdik. O'sha qurilishlar amalga oshirilgan Farovon mahallasi va unga tutash massivlar mutlaqo yangi ko'p qavatli uylardan tarkib topgan. Ularda istiqomat qilayotgan aholining aksariyati Prezidentimiz tashabbusi bilan "inson manfaatlari" g'oyasi asosida ushbu xonadon sohiblari bo'lishgan. Ularning farzandlari uchun yangi maktab binosini qurish biz uchun sharafli ish, shu bilan birga, Yurtboshimizning biz tadbirkorlarni qo'llab-quvvatloviga minnatdorlik ifodasi bo'lishini niyat qildik.





Maktab qurilishiga tadbirkor tomonidan 23 mlrd. so'm homiylik mablag'i yo'naltirilib, 990 o'rinli (bir smenada) besh qavatli bino tiklandi. Zamonaviy kompyuter va o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi. Shuningdek, o'quvchilarning kasb-hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini qanoatlantirishda barcha imkoniyatga ega ustaxonalar, 300 o'ringa mo'ljallangan maktab oshxonasi, tadbirlar zali va boshqa bir qator qo'shimcha o'quv xonalari yoshlarga zamon talabi asosida ta'lim olish imkonini beradi.

Donishmandlar odam odamga, yillar o'tib esa o'zi o'ziga o'xshamaydi, deyishadi. Aslida zamon va mezon o'zgaruvchan, kishilarni toblaydi. Shu jihatdan bugungi kunimiz insoniy fazilat va xislatlar ko'rigi, kimning nimaga qodirligi, imkoniyat, salohiyat va tafakkur dunyosini sinovdan o'tkazuvchan damlar, desak, xato bo'lmaydi. Boisi butun boshli bir avlod, xalq va millat o'zlikni anglash, yangi jamiyat qurish, milliy qadriyatlarni qaror toptirish, farovon turmush yo'lida fidokorona mehnat qilish kabi mezonlar asosida tarixning murakkab imtihonlaridan o'tmoqda.

Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida o'zining tashabbuskorligi, tadbirkorlik sohasida ko'plab istiqbolli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgani, ta'lim tizimini rivojlantirish, har tomonlama sog'lom hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi katta xizmatlari, shuningdek, jamiyatda o'zaro ko'mak, saxovat va mehr-oqibatni kuchaytirishga qaratilgan ezgu harakatlardagi faol ishtiroki uchun Navbahor tumanidagi "Saksonov" mas'uliyati cheklangan jamiyati ijrochi direktori Abdukarim Saksonov "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi.

Mamlakatimiz rahbari "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi", degan g'oyani ilgari surar ekan, uning poydevori bo'lmish ta'lim yo'lidagi har bir ezgulikni olqishlaydi. Buning zamirida esa har bir o'g'il-qiz kamolotida ertangi kunni, taqdirida mamlakat istiqbolini ko'rayotgan yurt rahbarining otalarcha g'amxo'rligi mujassam.

**Temur ESHBOYEV**
**("Xalq so'zi").**

## Baliqchilik

*Baliqchilik qishloq xo'jaligining istiqbolli tarmoqlaridan biri sanaladi. Shu bois mazkur soha faoliyatini jadal rivojlantirish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmi va mahsulotlari turlarini ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda baliqchilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.*

# «LUQMAI HALOL» YETISHTIRISH YIL SAYIN KO'PAYMOQDA

Xususan, davlatimiz rahbarining 2022-yil 13-yanvardagi "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish maqsadida aholi xonadonlarida ham baliq yetishtirishga ruxsat berish bilan birga, qator imtiyozlar qo'llanilmoqda.

Baliqchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari natijasida Surxondaryo viloyatida hozirda 354 ta xo'jalik faoliyat olib bormoqda. O'tgan yili umumiy qiymati 96,8 mlrd. so'm bo'lgan 13 ta yangi baliqchilik loyihasi amalga oshirilib, 132 ta ish o'rni yaratildi. Yil yakuni bilan viloyatda 35,3 ming tonna baliq yetishtirildi.

— Termiz tumanidagi "Norhamid bobo" fermer xo'jaligimiz baliqchilikka ixtisoslashtirilgan bo'lib, intensiv usulda baliq yetishtirish yo'lga qo'yilgan, — deydi fermer xo'jaligi rahbari Normuhammad Norhamidov. — Loyihamiz 10 sotixli sun'iy hovuzda kam suv sarf etib, ko'proq mahsulot olishga mo'ljallangan. O'tgan yili 10 tonna baliq yetishtirgan bo'lsak, bu yil uni yana ikki barobar oshirishni mo'ljallayapmiz.

Joriy yilda Termiz tumanida — 65, Uzun tumanida — 42, Qumqo'rg'on tumanida — 25, Angor tumanida — 15, Denov tumanida 10 gektardan ekstensiv suv havzalari qayta rekonstruksiya qilinib, intensivlashtiriladi. Natijada qo'shimcha 19,4 ming tonna baliq yetishtirish imkoniyatlari yaratiladi.

**Ilhom RAHMATOV**
**("Xalq so'zi").**

# BELGIYADA OROL DENGIZINING QURIGAN TUBINI KO'KALAMZORLASHTIRISH BORASIDAGI LOYIHALAR HAQIDA VIDEOLAVHA E'LON QILINDI



*Belgiya televideniyesining fransuz tilidagi rasmiy veb-saytida "O'zbekiston: Orol dengizining qurigan tubini ko'kalamzorlashtirish" nomli videoreportaj e'lon qilindi.*

## Biz va jahon

Dastur boshlovchisi Orol dengizi Markaziy Osiyodagi eng yirik ekologik ofat ekanligini qayd etadi. "Bundan 50 yil avval Orol dengizi dunyodagi eng katta ko'llardan biri bo'lgan bo'lsa, bugun u sahroga aylanib bormoqda, — deydi u. — Salbiy oqibatlarni bartaraf qilish uchun O'zbekiston rahbariyati tomonidan barcha choralar ko'rilmoqda".

Qayd etilishicha, hozirgi paytda Orol dengizining 90 foizi cho'lga aylangan. "Ushbu ekologik falokat sobiq ittifoq ma'muriyati tomonidan qabul qilingan noto'g'ri qarorlar tufayli yuzaga kelgan, — deyiladi lavhada. — O'zbekistondagi turli ekologik tashkilotlar hududni ko'kalamzorlashtirish orqali tuproqning sho'rlanishi va cho'llanishning tarqalishiga qarshi kurashishga harakat qilmoqda".

Videolavhada Orol dengizini qutqarish dasturini amalga oshirishga mas'ul Zinoviy Noviskiyning intervyusi berilgan.

Unda qayd etilishicha, Mo'ynoq tumani aholisi mavjud voqelikka moslashib, alohida issiqxona ekotizimida turli ekinlar yetishtirmoqda. Va Mo'ynoqda ko'chatlar ekish orqali tuproqning sho'rlanishi va eroziyasining oldini olish choralari ko'rilyapti.

Dastur boshlovchisi o'z xulosasida "Obodonlashtirish va tuz tarqalishining oldini olishga qaratilgan ushbu tashabbuslar jahon hamjamiyatiga o'rnak bo'lishi mumkin", deya ta'kidlagan.

**"Dunyo" AA.**
Bryussel

## Prezident tashrifidan so'ng

# KERDERDAGI BUNYODKORLIK ISHLARI

## fuqarolar hayotiga yangicha mazmun bag'ishlamoqda

*Prezidentimizning Qoraqalpog'istonga har bir tashrifi bu o'lkada navbatdagi ulkan bunyodkorlik, keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlarini boshlashga zamin yaratadi.*

*Mamlakatimiz rahbari ushbu hududga o'tgan galgi tashrifi davomida Nukus shahridagi Altin jag'is mahallasida bo'lib, bu yerda olib borilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarini e'tirof qilgan, buni davom ettirish lozimligini ta'kidlagan edi.*



Ayni kunlarda Qoraqalpog'istondagi ko'plab ovul hamda mahallalarda qurilish, obodonlashtirish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Nukus tumanidagi Kerder mahallasi ana shunday bunyodkorlik ishlari qurshovida. Hududda "Obod mahalla — obod ko'cha — obod xonadon" mezonini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bunga yorqin misoldir.

Mazkur mahallada 564 ta xonadon bo'lib, 3 786 nafar aholi yashaydi. Ular orasida qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va koreys millati vakillari ahil-inoq umrguzaronlik qilib kelishayotir.

— Maxsus ishchi guruhlar tomonidan xonadonlar uyma-uy yurib to'liq o'rganildi, — deydi Prezidentning Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq qabulxonasi vakili G'ayrat Tleumuratov. — Natijada 268 ta xonadonda 411 nafar fuqaroning sog'liqni saqlash, bandlik, subsidiya, kredit, uy-joyni ta'mirlash, ichimlik suvi va boshqa masalalar bo'yicha muammolari mavjudligi aniqlandi. Ularning aksariyati joyida hal etildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2 462 fuqaro tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 1 019 nafariga ambulator sharoitda davolanishga, 2 nafariga esa tuman tibbiy markazida davolanishga yo'llanma berildi.

Mahalladagi "ayollar daftari", "yoshlar daftari" va "temir daftar"ga, shuningdek, kam ta'minlangan oilalar ro'yxatiga kiritilgan 68 nafar fuqaroning xonadoni homiylar tomonidan ta'mirlab berilyapti. Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, boquvchisini yo'qotgan o'ndan ortiq xonadonlarda ta'mirlash ishlari yakunlandi. Shuningdek, ehtiyojmand sakkizta oilaga maishiy texnikalar berildi.

Bu hali hammasi emas. Mahallaga olib keluvchi yo'llarga asfalt, ichki tuproq ko'chalarga esa shag'al yotqizildi. 35 ta ko'chaga 20 km. uzunlikda ichimlik suvi tarmog'i tortilmoqda. Homiylik hisobidan 1 ta xonadonga artezian quduq qazib berildi. Elektr ta'minotini yaxshilash bo'yicha 1 ta yangi transformator o'rnatilib, yaroqsiz 80 ta simyog'och yangilariga almashtirildi.

E'tiborlisi, mahallada qurilish-obodonlashtirish ishlari bilan bir vaqtda, aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda bandligini ta'minlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilayotir.

Jumladan, tikuvchilik, xizmat ko'rsatish va boshqa yo'nalishlarda o'z ishlarini boshlayotgan 15 nafar aholi vakiliga subsidiya ajratilayotgan bo'lsa, 8 nafar fuqaroga 180 mln. so'm kredit berildi.

Umuman olganda, Prezidentimizning tashrifi chog'ida belgilangan vazifalar ijrosi mahallalarning obod bo'lishiga, xalqimizning turmush darajasi oshishiga xizmat qilayotir. Ko'p yillar e'tibordan chetda qolgan Kerder mahallasidagi keng ko'lamli yaratuvchanlik ishlari aholining ertangi kunga ishonchini yanada oshirmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, yangicha hayot bag'ishlamoqda.

**G'ayrat OTAJONOV**
**("Xalq so'zi").**

# PANDIGON KATTA O'ZGARISHLAR OSTONASIDA

*Ayni kunlarda Rishton tumanining olis "Pandigon" mahalla fuqarolar yig'ini hududida "Obod mahalla — obod ko'cha — obod xonadon" tamoyili asosida qariyb 15 milliard so'mlik qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ushbu dastur doirasida hayotga tatbiq etilayotgan izchil sa'y-harakatlar muhim omil bo'layotir.*

## Obod mahalla

Tashabbus doirasida ushbu mahallaga respublika va viloyat byudjetidan 14,7 mlrd. so'mdan ortiq mablag'lar jalb etilib, hudud infratuzilmasi hamda aholining yashash sharoitini yaxshilash ko'zda tutilgan. Shu maqsadda 4 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladigan 1089 ta oila to'liq xatlovdan o'tkazilib, muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etish uchun ishga kirishildi.

— Buni qarangki, qisqa fursatda markazdan ancha uzoqdagi, yillar mobaynida e'tibordan chetda bo'lib kelgan mahallaga yangi hayot nafasi kirdi, — deydi Rishton tumani Nuroniylar jamoatchilik kengashi raisi Tursunxo'ja Abdrahmonov. — Endilikda eski binolar zamonaviy inshootlar, tor va chang ko'chalar ravon asfalt yo'llar bilan almashmoqda. Mahalla ahli ham xayrli ishlardan chetda turgani yo'q. Odamlar o'z yashash joyini obod qilish uchun ko'tarinki kayfiyatda hasharga chiqmoqda.

Bugungi kunda Pandigonda 100 dan ortiq qudratli texnikalar yordamida bunyodkorlik va tozalik ishlari samarali tashkil etilib, mahalla kundan-kunga chiroy ochib borayotir. Rejaga asosan, joriy yilda hududdagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi va oilaviy shifokorlik punktini ta'mirlash rejalashtirilgan. Shuningdek, mahalladagi 12,6 km. elektr tarmog'ini modernizatsiya qilish hamda 481 ta beton tayanch ustun va 3 ta transformator o'rnatish, 11,5 km. ichki yo'llarni ta'mirlash, 7,4 km. ichimlik suvi tarmog'i tortish, 2,5 km. piyodalar yo'lagini barpo etish ishlari bajariladi.

E'tiborlisi, aholini ishli qilish oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida imtiyozli kreditlar, yoshlarga subsidiyalar ajratilyapti. Ayollar bandligini ta'minlash uchun esa yangi tikuvchilik sexi qurish rejalashtirildi.

— Muqim daromadimiz yo'qligi bois sharoitimiz nochor edi, — deydi mazkur mahalla fuqarosi Nodira Akbarova. — Mahallamizdagi bunyodkorlik ishlari natijasida bizning uyimiz ham homiylik yordami bilan mukammal ta'mirdan chiqarilyapti. Endi zamonaviy sharoitlarga ega xonadonda yashaymiz.



Yaqinda aholi salomatligini yaxshilash maqsadida tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 500 nafar mahalla ahli bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Terapevt, nevropatolog, otorinolaringolog kabi yuqori malakali shifokorlar tomonidan aniq tashxislar qo'yilib, muolajalar belgilandi. Tekshiruvlar jarayonida aniqlangan jiddiy kasalliklar bo'yicha davolanish uchun bepul yo'llanmalar berildi.

Yana bir muhim jihat. Pandigon mahallasining drayveri sifatida ko'katchilik tanlandi va 400 dan ko'proq xonadonlarda ko'kat yetishtirish boshlandi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar pandigonlik yoshlar bilimini boyitayotgan bo'lsa, "Uch avlod uchrashuv"lari tinch-osoyishta hayot bardavomligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

**Botir MADIYOROV**
**("Xalq so'zi").**

# INSON KAPITALI RO‘YOBIGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

*“Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash — O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir”.*

*Davlatimiz rahbarining BMT minbaridan yangragan ushbu fikrlari mamlakatimizda ta’limga barqaror taraqqiyot va farovonlikka erishishning eng samarali omili sifatida qaralayotganini yaqqol ifodalaydi.*

## Nuqtai nazar

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu dasturilamal hujjat xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida ishlab chiqildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash asosiy g‘oyalar sifatida belgilandi.

Ushbu ulug‘vor g‘oyalar mamlakatimizda inson qadri yanada ulug‘lanayotgani, uning salohiyatini yuksaltirish, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish, tinch-osoyishta, baxtli va farovon hayotini ta’minlash bosh maqsadga aylangani ifodasidir.

### Zamon taqozo etayotgan talab

Yangilanayotgan O‘zbekistonda insonning emin-erkin yashashiga, o‘z kuch-qudrati, jismoniy va ma’naviy imkoniyatlari, salomatligiga, maqsadlariga alohida e’tibor qaratilyapti. Shu bois 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ijtimoiy sohalar rivojiga keng urg‘u berildi.

Bu bejiz emas, albatta. Globallashgan bugungi dunyoda yuqori texnologiyalarni yanada rivojlantirish, barcha yo‘nalishlarga innovatsion ong va innovatsion tafakkurni olib kirishga bo‘lgan talab inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyojning oshishiga sabab bo‘ldi. Ilmiy-texnik integratsiyalar sharoitida tez qaror qabul qilish va ishga ijodiy yondashish tafakkuriga ega bo‘lgan, kreativ fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlash zamon talabiga aylanmoqda.

Uzoq yillar davomida raqobatbardosh ustuvorlik faqat yuksak texnologiyalarga egalik qilishda, deb e’tirof etib kelingan. Masalaga bunday yondashuv hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Lekin shu bilan birga, inson yaratayotgan kashfiyotlar tezlik bilan o‘sib, o‘zgarib bormoqda. Ilg‘or taraqqiyot pog‘onasidan joy olgan jamiyatlar boshqa raqobatchilardan oldinda bo‘lish uchun ana shu texnologiyalarni ishlab chiqishga qodir bo‘lgan yuksak qobiliyatli inson kapitali zarur ekanligini anglab yetmoqda.

Inson paydo bo‘libdiki, “Men kimman?”, “Dunyoga nega keldim?”, “Yashashdan maqsadim nima?” kabi savollarga javob izlaydi. Har bir odam shuuridan “Bu dunyoda qanday yashayapman?”, “Nimalarni qo‘lga kiritdim-u, nimalarni boy berdim?”, “Atrofimdagi insonlarga, jamiyatga naf keltira oldimmi?”, “Farzandlarimga nimalarni meros qilib qoldirmoqdaman?” degan o‘y-xayollar o‘tishi ham tabiiy. Aslida, har bir inson individ sifatida betakror, o‘ziga xos. Bu uning ong va tafakkur xususiyatlaridan biri bo‘lib, insoniylik belgisi hisoblanadi.

Pirovardida inson o‘z umri davomida muntazam izlanadi, sidqidildan mehnat qiladi, bilimi, ko‘nikmasi, mahoratini tinimsiz oshirib boradi. Mana shu mazmunli hayot yuqoridagi savollarga ijobiy javob bo‘lishi mumkin. Chunki inson kapitali hech qanday qiymat bilan o‘lchanmaydi, uni bozorlardan sotib olib bo‘lmaydi.

Inson kapitali — to‘plangan bilimlar, ko‘nikmalar, salomatlik hamda ularni ro‘yobga chiqarishga asoslangan tabiiy imkoniyatlardir. Inson sog‘lig‘ini muhofaza etish, sifatli ta’lim, qulay ish o‘rinlarini joriy qilish va malakasini oshirish orqali jamiyatga investitsiya kiritish inson kapitalining yuksalishiga hissa qo‘shadi. Bu esa aholi turmush tarzini rivojlantirishga, ijtimoiy jihatdan birlashgan kishilar jamoasini barpo etishda muhim hisoblanadi.

Dunyodagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning darajasi, texnologiya bozorida kechayotgan raqobat sifatli va qiymatli inson kapitalini yaratish musobaqasi hisoblanadi. Chunki jahon hamjamiyati tomonidan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnologik va shu kabi o‘zgarishlarni, ta’bir joiz bo‘lsa, “sakrashlar”ni faqat ana shunday ziyoli, bilimli, izlanuvchan, g‘ayratli va fidokorlar armiyasi — inson kapitali ishtirokida va ko‘magida amalga oshirsa bo‘ladi.

### E’tibor va tarbiya — onalik va bolalikdan

Inson kapitali haqida gap ketganda, uning shakllanishi va yuksalishi shartli ravishda ikki bosqichda ifodalanishini aytib o‘tish joiz. Hali dunyoga kelmagan insonning kelajagi uchun qayg‘urish dastlabki bosqich hisoblanib, bunda, avvalo, onalarga davlat tomonidan alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilishi lozim. Shu bois mamlakatimiz mehnat qonunchiligiga “tug‘uruq ta’tili davri” tushunchasi va unga ajratiladigan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kiritilgan.

Qolaversa, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar asosiy o‘rin egallagan. Jumladan, bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish, onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlashga qaratilgan dolzarb chora-tadbirlar belgilangan.

Xususan, kelgusi yillarda bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarni 2 barobar qisqartirish, chaqaloqlarda irsiy kasalliklar bo‘yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovini kamida 50 foizga oshirish ko‘zda tutilmoqda. Homiladorlik aniqlangan vaqtdan boshlab tug‘uruqdan so‘ng 42 kun ichida ayollar, go‘daklar va besh yoshgacha bolalar orasidagi o‘limni 2 barobarga kamaytirish choralari ko‘riladi. Tug‘uruq o‘rinlari soni 35 foizga oshiriladi.

Organizmning sog‘lom o‘sishi va rivojlanishi uchun vitaminlar juda zarur. Shu bois 6 — 23 oylik bolalarni mikronutriyent kukuni, 2 — 10 yoshdagi bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar, 3 — 15 yoshdagi bolalarni yod preparati, 15 — 35 yoshdagi xotin-qizlarni polivitamin, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta’minlash maqsad qilindi.

> ***Yangilangan Konstitutsiyamiz, “O‘zbekiston — 2030” hamda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, qabul qilinayotgan qonunlar, jamiyatda ilgari surilayotgan g‘oyalar inson qadrini yuksaltirib, uning manfaatlariga kamarbasta bo‘lmoqda. Bu inson kapitalini yuksaltirishga ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralayotganini bildiradi. Shu asosda yurtimizda inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va taraqqiy ettirishga xizmat qiluvchi ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish sohalari sezilarli darajada yuksalmoqda.***

Rejalashtirilgan tadbirlar natijasida bolalar orasidagi yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar 20 foizga qisqartiriladi.

Farzand dunyoga kelgach, uning tarbiyasi ham muhim ahamiyat ega bo‘ladi. Bu inson kapitalini shakllantirishda keyingi bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda muhit — oila asosiy faktor bo‘ladi. O‘shlarga ta’lim-tarbiya berishda esa ota-onalar, bobo-buvilar kabi yaqin qarindoshlarning ta’siri katta. Va shuni takror aytib o‘tish kerakki, insonning kelib chiqishi, nasli, bilimi, tajribasi, qobiliyati va boshqa individual xususiyatlari inson kapitalining shakllanishida muhim omillardan bo‘lib xizmat qiladi.

### Ta’lim — yuksalish poydevori



Inson kapitalining yuksalishi murakkab ijtimoiy bosqich bo‘lib, bunda odamlarning sog‘lom bo‘lishi, umr davomiyligini oshirish, farovon hayot kechirishlariga erishish mumkin bo‘ladi. Bu yo‘ldan esa, avvalo, ta’lim tizimining barcha bosqichini rivojlantirish, inson malakasini muntazam oshirib borish orqali o‘tish mumkin.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ayni maqsad yo‘lida qator chora-tadbirlar belgilanmoqdaki, ular navqiron avlodning zamon talablari asosida bilim olishi, o‘z iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishiga zamin bo‘ladi.

Bu borada, birinchi navbatda, maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash maqsad qilingan. Bu yo‘lda yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ochish, sohada xususiy sektorning salmog‘ini oshirish orqali ertamiz egalari maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olinadi.

Maktabgacha tarbiyada sifatga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta’minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barchasi toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlanishi yosh avlodning sog‘lom va baquvvat o‘sib-ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategiyada umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturi amalga oshirilishi belgilangan. Buning uchun olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to‘liq ta’minlash rejalashtirilgan.

Kelgusida 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish, yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 mingta multimedia dasturi ishlab chiqish, ta’lim tashkilotlariga har yili “til egalari” bo‘lgan 500 nafar xorijiy mutaxassisni jalb etish mo‘ljallanmoqda.

Barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslarini, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta’lim metodikasini joriy etish maqsad qilinmoqdaki, bu tizimni yangi bosqichga ko‘tarishi, shubhasiz.

Dasturilamal hujjatda pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish, professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish, oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha ham ko‘plab islohotlar qayd etilgan. Bularning barchasi inson kapitali ro‘yobida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

### Taraqqiyot shiddati — asosiy mezon

Yangilangan Konstitutsiyamiz, “O‘zbekiston — 2030” hamda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, qabul qilinayotgan qonunlar, jamiyatda ilgari surilayotgan g‘oyalar inson qadrini yuksaltirib, uning manfaatlariga kamarbasta bo‘lmoqda. Bu inson kapitalini yuksaltirishga ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralayotganini bildiradi. Shu asosda yurtimizda inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va taraqqiy ettirishga xizmat qiluvchi ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish sohalari sezilarli darajada yuksalmoqda.

Bu borada ba’zi bir muammolar, hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar ham bor. Ulardan biri — aholini doimiy ish bilan ta’minlash. O‘zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Bu, o‘z-o‘zidan, ularni munosib haq to‘lanadigan ish bilan ta’minlash muammosini yuzaga chiqaradi.

Strategiyada mehnatga layoqatli aholining, jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning barqaror hamda samarali bandligini ta’minlash orqali ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish belgilangani bekorga emas. Zero, yoshlar — jamiyatda asosiy ishchi, muhim kapital demakdir. Bu ishchi kuchini to‘g‘ri yo‘lga safarbar eta olsak, ko‘plab masalalar o‘z-o‘zidan yechiladi.

Inson salohiyatini yuksaltirishdagi eng dolzarb omillardan biri — sifatli ta’lim. Olimlarning fikricha, bir yillik qo‘shimcha ta’lim insonning hayoti davomida topishi mumkin bo‘lgan daromadlarini 10 foizga ko‘paytirar ekan. Yana bir misol, bilimi o‘rtacha bo‘lgan pedagoglarni malakali mutaxassisga almashtirish orqali inson daromadlarini o‘rtacha 20 foizga oshirish mumkin. Shu bois maktablarda ta’lim sifatiga bo‘lgan talab zamon ehtiyoji, taraqqiyot shiddatiga qarab tobora yuksaltirib borilaverishi shart.

Binobarin, inson kapitali markazida bilim olish asosiy rol o‘ynashini hisobga oladigan bo‘lsak, ta’lim tizimiga e’tibor naqadar dolzarb xarakterga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Shu bois hozir ta’lim tizimining barcha bosqichi isloh qilinib, zamon talablariga moslashtirilmoqda. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizga binoan, davlat granti asosidagi ta’limning kafolatlanishi, oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalarining ortishi, oliygohlar sonining ko‘payishi, nodavlat va xorijiy ta’lim muassasalarining faoliyatiga keng yo‘l ochilishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Eng muhimi, mamlakatimizda inson qadri tushunchasiga munosabat tubdan o‘zgargani amalga oshirilayotgan o‘zgarishlardan ko‘zlangan maqsadlarning ro‘yobiga ishonchimizni mustahkamlaydi. Zotan, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz.

**Elmurod ABDULLAYEV,**
**Andijon davlat pedagogika instituti Kengashi kotibi, falsafa doktori (PhD).**

# GULIRA’NO TANLAGAN YO‘L

*Toshkentdan yuzlab kilometr yo‘l bosib, Farg‘ona viloyatining Rishton tumaniga yetib keldik. Oddiy qishloq qizi, dehqon oilasida voyaga yetgan, oliy ma’lumotli olim-agronom Gulira’no Xoliqovani izlab Qayrag‘och qishlog‘i tomon shoshamiz. Yo‘l-yo‘lakay so‘rab-surishtirib, u mehnat qilayotgan dala shiyponini topdik.*

## Oramizdagi odamlar

Chamandek ochilgan paxtazorda terimchi xotin-qizlarning sho‘x-shodon ovozlari eshitildi. Ular orasida sho‘x-shaddodligiyu g‘ayrat-shijoati yuz-ko‘zidan shundoqqina bilinib turgan Gulira’no ham bor ekan. Uchrashdik, suhbatimiz tezda qo‘r oldi.

Gulira’no Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida o‘qigan. 2021-yilda a’lo xulqi, namunali bilimi tufayli Beruniy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo‘ldi. 2021 — 2023-yillarda ushbu OTMning magistraturasida davlat granti asosida tahsil olib, olim-agronom mutaxassisligini egalladi. Va qadrdon qishlog‘i Qayrag‘ochga otasi Yo‘lchiboy aka yoniga qaytib, “Xoliqov Yo‘lchiboy” fermer xo‘jaligiga rahbar bo‘ldi.

Boshida unga “Gulira’no, sen institutni bitirib, magistraturada o‘qib, shuncha bilim bilan fermer xo‘jaligini boshqarasanmi, kattaroq lavozimda ishlasang bo‘lmaydimi?” deganlar ham uchradi. Uning javobi shunday bo‘ldi: “Fermerlik shunday katta lavozimki, uni faqat bilim bilan boshqarish kerak, nomiga fermer bo‘lib, ishni eplay olmay mulzam bo‘lib qolganlar qancha?”

Keyinchalik odamlar bu borada Gulira’noning haqligiga amin bo‘lishdi. “Fermer bo‘lish uchun nafaqat institutni, balki magistraturani ham bitirish kerak ekan”, deyishdi ular. Gulira’no esa o‘z so‘zini mehnat bilan, mo‘l hosil va sifatli paxta xomashyosi yetishtirish bilan isbotladi.

— Gulira’no kenja qizim, o‘g‘lim bo‘lmasa-da, uning g‘ayrati va shijoati o‘n o‘g‘ilga tatiydi, — dedi Yo‘lchiboy Xoliqov. — Men uning tibbiyot xodimi bo‘lishini istagandim, lekin u shu og‘ir mehnat yo‘lini tanladi. Hozir katta bir xo‘jalikni boshqaryapti. Ishlagandayam ilm bilan, innovatsiya bilan mehnat qilyapti. O‘qiganning noni halol ekan. Buni qizim misolida ko‘rib, sezib turibman. Talabalik yillaridayam ta’tilni dalada o‘tkazardi. Institutda o‘rgangan bilimlarini shu yerda, egat oralab amaliyotda sinadi. O‘zi traktor haydab, g‘o‘za qator oralariga ishlov berdi. Kuz-qish oylarida dalalarning sho‘rini yuvishdan tortib, bug‘doy sepish, bahorda yerga chigit qadash jarayonlarida hozir bo‘ldi. U buncha g‘ayratni qayerdan olayotganiga hayronman...



Gulira’no otasi ishlayotgan dalalarga ilmni olib kirgani rost. Ekilayotgan paxta navlarini yangilagani ham bor gap. Agrotexnik ishlov mavsumida mineral o‘g‘itlardan nisbatan kamroq foydalanib, mahalliy o‘g‘it va innovatsion texnologiyani keng qo‘lladi. Suv tejash texnologiyalaridan ham foydalandi. Natijada hosildorlik yil sayin oshib bordi. Unga havas qiluvchilar ko‘paydi, tajriba almashish uchun keluvchilarning qadami uzilmadi.

O‘sh qizning yutuqlarini eshitgach, oltiariqliklar faxri bo‘lgan, paxta ustasi O‘zbekiston Qahramoni Lola Murotova hayotlik paytida vaqt topdi degunicha, “g‘iz” etib, Oltiariq dalalariga tutash Rishtonning Qayrag‘och qishlog‘iga yetib kelardi. Har gal Gulira’noni uyidan emas, dalasida, ish ustida, traktor rulida yoki egatlarga suv tarayotganlar yonidan topardi. “Sen qiz o‘t-olovsan, mendan-da g‘ayratliroq chiqding. Yangi O‘zbekistonga senday g‘ayratu shijoatli yoshlar juda-juda zarur. Chunki qo‘ling paxta mehnatida qadoq bo‘ldi, jussang shu dalalarda ulg‘aydi, farg‘onalik paxta ustalarining oydin yo‘lini tanlab adashmading. Xudo xohlasa, halol mehnating va biliming seni tez kunlarda elga tanitib, kamolga yetkazadi”, derdi hayajonini yashirolmay Lola opa.

— Ustozim Lola opadan ko‘p maslahatlar oldim, dehqonchilikning sir-asrorini o‘rgandim. U kishi dalalar bilan, g‘o‘za nihollariyu bug‘doy maysalari bilan tillashishni bilardi. Bir zumda oddiy qishloq kishilari, dehqonlar qalbini uqib olish san’ati bor edi unda. Mehnatida er kishiga xos mardlik, jasorat va halollik hukmron edi. Shu bois dalasidayam ishidayam baraka bor edi, — deydi Gulira’no Xoliqova.

Gulira’no har qarich yerni e’zozlab, egat oralab paxta terayotgan qishloq ayollari bilan til topishib, mehnatdan baraka topmoqda. Shu bois uning paxta xirmonida ham, bug‘doy urug‘i qadalayotgan dalalarida ham fayz bor, baraka bor.

— Bu yilgi hosilimiz yanada barakali bo‘ldi, xudo xohlasa gektaridan 51 sentnerdan paxta xomashyosi terib olamiz, — deydi u.

“S 8290” navi ekilgan paxtazor chamandek yashnab yotibdi. Bir yuz ellik nafar terimchi ishtirokida kunlik reja oshig‘i bilan bajarilayotir. Bu yilgi g‘allaning ham xirmoni barakali bo‘ldi. Har gektar maydondan 90 sentnerdan qirmizi don o‘rib olindi.

Bundan o‘n yil oldin bu yerlardan oshib borsa 30 — 35 sentnerdan paxta, 50 — 60 sentnerdan g‘alla yig‘ishtirib olingan. Ammo mehnat boru rag‘bati yo‘q edi. Fermerlik azobu uqubatlarga to‘la yillar edi-da. Yetishtirilgan hosilning pulini ololmasdan ovvorayu sarson yurishardi. Prezidentimiz boshlagan islohotlar tufayli klaster tizimi yaratildi. Qishloqqa sanoat kirib keldi, odamlar ish bilan ta’minlandi. Dehqon yelkasiga ortilgan yuk olib tashlandi, qo‘li pul ko‘rdi. Fermerlik, tadbirkorlikka keng yo‘l ochilgani bois o‘sha yillari shirin tush bo‘lgan orzular, bugun haqiqatga aylandi. Mehnat qilgan elda aziz bo‘lmoqda.

— Maqsadlar yuksak, faoliyatimizni yanada rivojlantirib, keng tarmoqli xo‘jalikka aylantirish niyatidamiz, — deydi Gulira’no Xoliqova. — Hozir 40 uya asalari parvarishlayapmiz, kelgusi yildan uning sonini 100 taga yetkazamiz. Ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yamiz. Baliqchilik, chorvachilik tarmoqlari uchun imtiyozli kredit olib, yangi ish o‘rinlari ochamiz. Qishloq yoshlarini, ayollarni ish bilan ta’minlaymiz.

Qishloqdoshlarining aytishicha, fermer qiz el dardi bilan yashamoqda. O‘shlarni ish bilan ta’minlash, yetimlar, yolg‘iz keksalar holidan xabar olish, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “temir daftar”ga kiritilgan qishloqdoshlariga imkon qadar yordam ko‘rsatish Gulira’no uchun qat’iy maqsadga aylangan. Shu bois bu yilgi g‘alla hosilidan ehtiyojmand oilalarga bug‘doy tarqatildi. Hozirda har bir ayol uchun kunlik terim puliga qo‘shimcha ravishda fermerning shaxsiy hisobidan yog‘ ulashilmoqda. “Obod mahalla — obod ko‘cha — obod xonadon” tamoyili bo‘yicha amaliy ishlarda faol ishtirok etish uning galdagi rejalaridan biri sanaladi.

— Fermer va tadbirkor boy bo‘lsa, el obod, Vatanimiz qudratli bo‘ladi. Prezidentimiz ilgari surgan bu ezgu g‘oya bizga katta kuch beryapti, qanot bo‘lmoqda. Natijaga erishish, avvalo, insondan o‘z oldiga maqsadni to‘g‘ri qo‘yishdan boshlanadi. Sabr-toqat va halol mehnat esa, albatta, o‘z samarasini beradi, — deydi fermer biz bilan xayrlashar chog‘ida.

**Shodiyor MUTAHAROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941.33 088 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-6788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 01.12 Topshirildi — 01.40 1 2 3 4 5 6